

DEVIATSIYA PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

1. Maxmatqulov Ilyos Sadullo o'g'li

2. Boitov Anvarjon Abruyevich

3. Toshbekov Aliyor Julmat o'g'li

1. Leytenant, Urgut tuman IIB JXX HPB VYBIG VYMB inspektor psixologi.

2. Leytenant, Urgut tuman IIB JXX HPB VYBIG VYMB inspektor psixologi.

3. Leytenant, Urgut tuman IIB JXX HPB VYBIG VYMB inspektor psixologi

<https://10.5281/zenodo.7762034>

Annotatsiya: Ijtimoiy muhitdagi salbiy xulq-atvor o'z-o'zidan shakllanib qolmagan, uning shakllanib kelishida insonlarning dunyoqarashidagi xilma-xilliklar, tarbiyada, oiladagi muhitdagi tafovutlar, turli madaniyatlarning o'zaro aralashuvi, ijtimoiy nazoratning sustligi va boshqa omillar katta rol o'ynab kelgan. Ushbu maqolada deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi omillar, deviant xulq-atvorning kechishi va asosiy belgilari ko'rsatilgan. Maqolada deviant xulq-atvorning psixologik omillari haqida batafsil yoritilgan bo'lib, shuningdek uning insonlar hayotiga, xatti-harakatlariga, ta'siri va zararli tomonlari haqida atroflicha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Deviant xulq-atvor, huquqbuzarlik, jinoyatchilik, ichkilikbozlik, fohishabozlik, qimor o'yinlari, o'z joniga qasd qilish va zararli odatlar.

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi rivojlanayotgan zamonda katta siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar odamlarning dunyoqarashi, ongi, ijtimoiy muhitiga keskin ta'sir o'tkazmoqda, bu esa ularning muomalasida, xulq-atvorida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Albatta deviant xulq-atvor XXI asr muommosi emas, xulq-atvordagi salbiy og'ishlar tarixan shakllangan bo'lib, bugungi kunda uning tub mohiyatini o'rganish har qachongidan ham dolzarb masala bo'lib qoldi.

Bugungi kunda biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo holisona tan olib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun qanday keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, «ommaviy madaniyat» kabi tahdidlar kuchayayotganini hisobga oladigan bo'lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy soxadagi ishlarimizni bir zum xam susaytirmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur.^[1]

Hozirgi zamon psixologiya fanida deviatsiya bu- jamoatchilik noroziligiga sabab bo'luvchi har qanday xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi, demak bizning nazarimizda deviatsiya va devint (og'ishgan) xulq-atvor atamallari bir xil ma'noda ishlatiladi. Bugungi kunda ijtimoiy me'yordan og'ish nafaqat o'smirlar uchun dolzarb mavzu bo'lib qoldi. Nafaqat o'smir, keng ma'noda deviant - bu adashgan yoki normadan chetga chiqqan har qanday odam. Deviant xulq-atvor shakllariga jinoyatchilik, huquqbuzarlik, yolg'onchilik, dangasalik, ichkilikbozlik, o'g'irlik, giyohvandlik, fohishabozlik, qimor o'yinlari, o'z joniga qasd qilish va boshqa ko'plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi. Deviant xatti-harakatlar bilan bog'liq muammolar so'nggi yillarda yanada kuchaymoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali namoish etilayotgan materiallarda huquqbuzarlik, jinoyatchilik, giyohvandlik, fohishabozlik kabi xulq-atvorning turli ko'rinishlarini aytish mumkin.

Deviant xulq-atvor atamasini dastlab sotsiolog E.Dyurkgeym ishlatgan, ammo jamiyatning eng qadimiy muammolaridan biri sifatida deviant holatlarga munosabatlar qadim davrlardan shakllanib kelgan. Qadimgi xalqlarning diniy-mifologik tasavvurlari, xususan Misr, Hindiston va Xitoy diniy qonun-qoidalaridagi axloqiy me'yorlar bu sohadagi dastlabki qarashlar edi. Qadimgi Yunon va Rim faylasuflari ham o'z asarlarida mazkur muammolarni tahlil kilib berganlar.^[2]

Jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish holatlarini o'rganuvchi deviant xulq-atvor psixologiyasi muammolari O'zbekistonda keng o'rganilmoqda. Deviant xulq-atvorli bolalarga alohida yordam ko'rsatishni tashkil etish, ularga yordam berish maqsadida, bugungi kunda psixologlar, pedagoglar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, huquqshunoslar, sotsiologlar va diniy idora vakillari ko'plab ishlarni amalga oshirmoqda. Deviant xulq-atvorning turli ko'rinishlarini mamlakatimiz olimlari o'z tadqiqot obektlari doirasida o'rganganlar. Respublika faylasuflari X.Shayxova, Q.Nazarov, M.Xolmatova, N.Komilov (shaxs tarbiyasida ma'naviy-axloqiy tarbiya ta'siri masalalari), psixologlar G'.B.Shoumarov, N.A. Sog'inov, S.A.Axunjanova, Z.R.Qodirova, E.Sh.Usmonov, B.M.Umarov (o'z joniga qasd qilish va jinoyatchilik muammolarining ruhiy-psixologik asoslari), pedagoglar O.Musurmonova, D.J.Sharipovalarning (oilada barkamol shaxsni tarbiyalash hamda giyohvandlik, ichkilikbozlik, chekish kabi illatlarning oldini olish muammolari) olib borgan ilmiy ishlarini shunday ishlar jumlasiga kiritish mumkin.

Jamiyatda insonlar faoliyati, va xulq-atvorini ijtimoiy me'yorlar boshqaradi.

Ijtimoiy me'yor jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan sosial muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir.

Ijtimoiy me'orning afzalligi shundaki, yoshligidanoq muayyan me'yorlarga moslashtirib borilgan shaxslar jamiyat tomonidan qabul qilingan tamoyillar doirasidan chetga chiqmaydi va boshqalardan ham shuni kutadi, va albatta ijtimoiy me'yorlar qotib qolmagan va ular har doim yangilanib turadi. Jamiyat a'zolarining mazkur ijtimoiy me'yorlarga amal qilib yashashlarini nazorat qilib boruvchi institutlar ijtimoiy nazorat institutlari deyiladi. Ushbu institutlarga oila, maktab, mahalla, huquqni muhofaza qilish organlari va hokazolar kiradi. Insonlar bolalarga ijtimoiy me'yorlarni o'rgatib borish bilan birga, xulq-atvor me'yoriy talablarining to'g'ri bajarilishini ham nazorat etishadi va bu bilan ijtimoiy nazorat vakili vazifasini bajarishadi. Nazoratni yakka shaxs amalga oshirsa, bu individual tavsifga ega bo'ladi, agar butun bir jamoa, oila, do'stlar, maktab, mahalla (qo'ni-qo'shnilar) tomonidan amalga oshirilsa, ijtimoiy tavsifga ega bo'ladi hamda u ijtimoiy nazorat deyiladi. Ijtimoiy nazorat vakillari insonlar xulq-atvorini boshqa-rishning eng muhim vositasi bo'lib, deviant xulq-atvorning oldini olishda ham ushbu jamoalarning o'rni katta bo'ladi.

Quyidagilar deviant xulq-atvorning nisbatan kengroq tarqalgan ko'rinishlaridan hisoblanadi: Jinoyatchilik-muayyan davlatda o'rnatilgan qonun va me'yorlarga nisbatan ayrim shaxslarning salbiy munosabati jinoiy faoliyati va shuning oqibatida sodir etilgan xatti-harakat. Huquqbuzarlik - huquqni buzish umuman olganda, jamiyat manfaatlariga yoki fuqarolarning shaxsiy manfaatlariga qarshi qaratilgan asosial hulq-atvor shakllaridan biri hisoblanadi, barcha huquqni buzishlar jinoyat va qilmishga bo'linadi. Qilmish shaklidagi huquqni buzish o'smirlarda o'zini tahdidli holatda tutishda, behayolikda, urishqoqlikda, mayda o'g'irlikda, ichkilikbozda, daydilikda namoyon bo'ladi.

Ichkilikbozlik-bu borada ilmiy adabiyotlarda bir necha tasniflar mavjud: 1) Alkogolni har zamonda iste'mol qilish. 2) Alkogolni ko'p iste'mol qilish — spirtli ichimliklarni muntazam, ya'ni haftada bir martadan bir necha martagacha yoki birvarakayiga o'rtada tanaffus bilan ko'p mikdorda (200 ml.dan oshiq). Bu ko'pincha alkogolizmga olib keladi. 3) Alkogolizm — spirtli ichimliklarga patolo-gik (muttasil) o'rganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik. Mazkur holat o'smirlar ongiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan, tadqiqotlarda o'smirlar o'rtasida sodir etilgan jinoyatlarning 10 foizi aynan ichkilik ta'sirida amalga oshirilganligi aniqlangan. Deviant xulq-atvorli o'smirlarning 12 foizi alkogolizm ta'sirida shunday xulq-atvorda shakllanganligi aniqlangan.

Giyohvandlik - giyohvand modda yoki unga tenglashtirilgan vositalarga muntazam ruju qo'yish va tibbiy ko'rsatmalarsiz iste'mol qilish.

Joniga qasd qilish - o'lish maqsadida atayin o'ziga ziyon yetkazishdir. Bunday ishga qo'l urayotganlar odatda ruhan kuchli azoblanayotgan va stress holatida bo'lib, o'z muammolarini mustaqil yecha olmasligi, o'z joniga qasd qiluvchilarni ruhshunoslarning ta'kidlashicha, atrofdagilarning tushunmasligi, yolg'izlik, mehr- muhabbat yetishmasligi kabi sabablarga borib taqaladi.

Fohishabozlik. Fanda rasmiy nikohsiz jinsiy aloqa ikki turga bo'lib o'rganiladi: 1. Konkubinat — nikohsiz birga yashash. 2. Fohishabozlik — pul uchun o'z tanasini sotish. G'arbda asosan ikkinchisi qoralansada, Sharqda ikkala holatga ham me'yordan og'ish sifatida qaraladi.

Yuqoridagilardan tashqari qimor o'yinlari, zararli odatlar, o'g'irlik va boshqa bir qancha ijtimoiy me'yorlarni buzadigan salbiy xulq-atvor turlari mavjud bo'lib ular o'smirlar ongi va turmush tarziga katta ta'sir kursatmoqda. Hozirgi davrning muhim xususiyatlaridan biri bugungi zamon talablariga mos keladigan, yangicha fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Mutaxassislar tomonidan juda ko'plab ishlar amalga oshirilib, ta'lim - tarbiya maskanlari ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda salbiy xulq-atvor ko'rinishlari qanchalik qoralanmasin jamiyatimizda shunday xulq-atvordagi shaxslar har doim shakllanib kelmoqda.

Afsuski, bugun jamiyatimizda yoshlarimizning xulq-atvorida salbiy ko'rinishlar ko'plab uchrab turibdi. Salbiy xulq-atvor ko'rinishlarini biz yuqorida ko'rib chiqdik. Lekin ularni bartaraf etilmasligi oqibati ko'plab salbiy holatlarga olib kelmoqda. Bu ham shunday salbiy xulq-atvorga ega shaxsning o'ziga va o'zgalarga qolaversa, butun jamiyatga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Shuning uchun ijtimoiy me'yorlarga amal qilish jamiyatning barcha bo'g'in vakillari tomonidan o'z vaqtida nazorat qilinsa, nafaqat xuquqiy balki, ijtimoiy sanksiyalar o'z vaqtida qo'llanilsa, profilaktik tadbirlar o'z vaqtida va to'g'ri amalga oshirilsa, bizning nazarimizda yuqorida aytib o'tilgan xulq-atvorga ega shaxslarning shakllanishi jamiyatimizda keskin kamayishi mumkin.

References:

1. Mirziyoev Sh.M "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz". T.: - O'zbekiston. 2017.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va amaliyot. O'quv qo'llanma. – T., 2014.
3. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. Darslik. – T.: 2010.

4. Zinnurov.F.K. Профилактика и коррекция девиантного поведения детей и подростков в новых социально-культурных условиях XXI века. Монография.- К.: 2012
5. To'rayev.A Deviant xulq-atvor va yoshlar sotsiologiyasi. KEYS-STADI (Uslubiy tavsiya) Jizzax– 2015.
6. Aliyev. B.A., Rafiqov.G', Sultonov.T, Mullajonova.M, Rahmonov.B. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. - T.: 2005